



## MUAMMOLI KREDITLARNING BARTARAF ETISH YO'LLARI



Sa'dullaeva Moxinur Aziz qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

**Annotatsiya:** Maqolada to'lov intizomini mustahkamlash masalalari ko'rib chiqilgan va tadqiq etilgan. To'lovsizlik bilan bog'liq bo'lgan muammolar aniqlangan va ularni hal etish yo'llari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakatda to'lov intizomini mustahkamlashga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** To'lov, to'lov aylanmasi, to'lovsizlik, to'lov intizomi, makroiqtisodiy barqarorlik, monetizatsiya koeffitsienti, YaIM (yalpi ichki mahsulot), pul massasi, pul agregati ( $M_2$ ), pul oqimi, investitsiya, tijorat banki, kredit foizi, debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, restrukturizatsiya.

Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash uchun dastlab to'lovsizliklarga barham berish va to'lov intizomini mustahkamlash mamlakatimiz to'lov aylanmasidagi ahvolni yaxshilashning asosiy yo'nalishi sifatida e'tirof etilmog'i lozim. Chunki, eng avvalo, to'lovsizliklarga barham bermasdan va to'lov intizomini mustahkamlamasdan turib, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi sharoitida to'lov aylanmasidagi haqiqiy ahvolni yaxshilab bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi sharoitida to'lovsizliklar, ko'p jihatdan, bir qancha ishlab chiqarishlarning samarasizligi tufayli vujudga kelganligi uchun iqtisodiyotning real sektoridagi vaziyatni prinsipial yaxshilashning shartlaridan biri undagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'lib, buning natijasida talabga ega bo'lmagan mahsulot va bozoriy kelajakka ega bo'lmagan korxonalar bozordan chiqib ketishi lozim. Odatda, bozoriy kelajakka ega bo'lmagan korxonalar to'lovsizliklar zanjirida boshlanuvchi hisoblanadi yoki ular o'z mahsulotlarining baholarini oshirib, iste'molchilarda moddiy xarajatlar qo'shimcha o'sishining omili bo'lib xizmat qiladi.

To'lov aylanmasiga xos bo'lgan muammolardan biri bu to'lovsizliklar muammosi ekanligi ko'rinib turibdi. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi iqtisodiyotning real sektoriga e'tiborni kuchaytirishning zarur ekanligini yana bir bor ko'rsatayapti. Ayni vaqtda "bank - korxonalar"ning o'zaro ta'sirchanligini faollashtirishda bir necha omillar to'siq rolini o'ynamoqda. Xususan,

tijorat banki uchun kredit foizining yuqori darajada ekanligi, ko'p jihatdan, doimiy bo'lib qolayotgan to'lovsizliklar bilan belgilanmoqda.

Bankdan kredit olgan korxonalar, qiyosiy jihatdan barqaror moliyaviy ahvolga ega bo'lsa-da, o'zining intizomsiz hamkorlari tufayli to'lovsizliklar zanjiriga tortilib qolishi va buning natijasida esa, bankka kreditni qaytarish va unga foiz to'lash imkoniga ega bo'lmasdan qolishi mumkin.

To'lov aylanmasining muammolari, eng avvalo, uni amalga oshirish hozirgi amaliyotining zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga yetarli darajada javob bera olmayotganligi bilan belgilanishini ko'rsatdi va ularning, asosan, quyidagilardan iborat ekanligini aniqlash imkonini berdi:

- to'lov aylanmasining yetarli darajada barqarorlik kasb etmayotganligi;
- to'lov nisbatlarining buzilishiga yo'l qo'yilayotganligi;
- to'lovlarning iqtisodiy asoslaridan chekinish hollarining sodir bo'layotganligi;
- to'lovsizliklarning darajasi, ayrim sanalarda, yuqori ko'rinishga ega bo'layotganligi;
- amaliyotda to'lov aylanmasining roliga yetarli darajada baho berilmayotganligi;
- to'lov aylanmasi korxonalar va tashkilotlarni kreditlashning asosiy sub'ekti sifatida foydalanilmayotganligi oqibatida tijorat banklarining kredit risklari, ko'p jihatdan, ana shunga bog'liq bo'lib qolayotganligi;
- to'lovsizlikning asosiy sabablarini va xo'jalikdagi eskirib qolgan muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning restrukturizatsiya qilish masalalarini aniqlash o'zining yechimini talab qilayotganligi;
- mamlakatimizda monetizatsiya koeffitsientining amaldagi darajasini xalqaro amaliyotda qabul qilingan andozaviy darajaga (kamida 40%) nisbatan sezilarli darajada past ekanligi.

Korxonalar kattagina qismining to'lovga qobilsizligi sharoitida iqtisodiyot real sektorini kreditlashni faollashtirish vazifasi boshqa bir muhim vazifa, ya'ni bank tizimi o'zining moliyaviy barqarorligini saqlab qolish vazifasi bilan ziddiyatlashadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda iqtisodiyot real va moliyaviy sektorlarining o'zaro ta'sirchanligini qayta tiklash va kuchaytirishga qaratilgan islohotlarning umumiy yo'nalishi nuqtai-nazaridan to'lov aylanmasining eng muhim muammosi sifatida to'lovsizliklar muammosining shu jarayonga to'sqinlik qiluvchi asosiy omil sifatida qaralishi, bizning fikrimizcha, juda asosli bo'lib, u o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tijorat banklari kredit qo'yilmalari hajmining o'sish tendensiyasi milliy iqtisodiyotning pul bilan ta'minlanganlik darajasining aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning to'lov qobiliyatining ortishiga olib keladi. Biroq mamlakatimizda monetizatsiya koeffitsienti darajasining nisbatan past ekanligi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, korxonalar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik muammosini chuqurlashtiradi.

Yuqoridagi tartibga rioya qilgan holda mamlakatimizda monetizatsiya koeffitsientining mavjud darajasiga qiyosiy baho berib o'tamiz, (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida monetizatsiya ko'rsatkichlarining dinamikasi<sup>1</sup>**

01.01.2022

	Yillar	YaIM (trln. so'm)	Pul massasi M <sub>2</sub> (trln. so'm)	Monetizatsiya Koeffitsienti
1.	2016	210,2	40,6	19,3
2.	2017	242,5	50,3	20,7
3.	2018	302,5	70,8	23,4
4.	2019	407,5	80,2	19,7
5.	2020	537,8	91,3	17,0
6.	2021	580,2	107,6	18,5
7.	2022	734,6	140,2	19,1

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda monetizatsiya ko'rsatkichlari dinamikasi 2016-2022 yillarda bir tendensiyaga ega emas. Bu holat, birinchidan, monetizatsiya koeffitsientining past ekanligi iqtisodiyotda o'zaro to'lovsizlik muammosini chuqurlashtiradi, ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining pul oqimini zaiflashtiradi, uchinchidan, to'lov qobiliyatini rag'batlantirishga to'sqinlik qiladi va pulning aylanish tezligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Bizga ma'lumki, to'lovsizlik muammosi 2019 yilning 1 oktyabrida 93 trln. so'mni tashkil etgan, korxonalar o'rtasida debitorlik qarzlari o'tgan yilga nisbatan 16,5 martaga oshdi. Chunki hozirgi paytda bu debitorlik qarzlarni to'lash uchun iqtisodiyotimiz yetarli darajada pul bilan ta'minlanmagan, bu holatni yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin.

2021 yilning yakunlari bo'yicha Respublikamiz iqtisodiyotini pul bilan ta'minlanganligi darajasi 19,1 %ni tashkil etgan. Hol buki, Jahon banki ekspertlarining fikriga ko'ra agar monetizatsiya koeffitsienti 40%dan past bo'lsa bu iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosini hal qilib bo'lmaydi. Biz hozirgi kunda birinchi navbatda to'lovsizlik muammosini hal qilishimiz lozim. Ikkinchidan kreditlarning foiz stavkasini pasaytirishimiz lozim. Hozirgi kunda iqtisodiyotni pul bilan ta'minlaydigan ikki kanal ham yopig'ligicha qolmoqda, birinchidan kreditlarning foiz stavkasi juda yuqoridir, ikkinchidan ana shu kreditlarning qimmatlashuvi kredit oluvchining rentabelligidan yuqoridir, bizga ma'lumki, agar kreditlar foiz stavkasi korxonalarining rentabelligidan yuqori bo'lsa, kreditlar o'z vaqtida qaytmasligi muammosi kelib chiqadi va tijorat banklari kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar salmog'ining oshishiga olib keladi.

Mamlakatimizda kreditlash amaliyotini tez sur'atlarda kengaytirayotgan banklarda to'lov qobiliyati pasayib, muammoli kreditlar hajmi ortmoqda. Shu sababli, banklar kreditlar o'sishida juda ham ehtiyot bo'lishlari kerakligi bu kelajakdagi bank faoliyatiga tahdid solishi mumkinligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, banklar bank kapitalining yetarliligi koeffitsientini saqlab qolish, bank tizimining Bazel talablarini bajarish

<sup>1</sup> \*YaIM-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi-www.stat.uz.

<sup>6</sup> \*Pul massasi M<sub>2</sub> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi- www.cbu.uz.

borasidagi ko'rsatmalarga muvofiq ravishda faol o'sib boruvchi kreditlash sifatida ko'rib chiqishlari kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda pandemiya davrida aholi va tadbirkorlik sube'ktlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator imtiyozlar joriy etildi. Ushbu imtiyozlarning ayrimlari tijorat banklarida muammoli kreditlar hajmini ortishiga sabab bo'lmoqda.

Banklarda muammoli kreditlar salmog'ining ortib borishi banklarning likvidlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qilishi, banklarning o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishlarida turli xil muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Tahlil ma'lumotlariga asoslanib, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni sog'lomlashtirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi:

- Qaytarilmayotgan kreditlar muammosining dolzarbligi hamda keng ko'lamliligini inobatga olgan holda kreditni restrukturizatsiya qilish;

- Mijozning kredit olishni xohlashi yoki xohlamasligidan qat'iy nazar banklar tomonidan har bir mijozning ichki reytingini aniqlash va belgilash tartibining ishlab chiqilishi muammoli kreditlarni yuzaga keltiruvchi risklarni kamaytirish imkonini yaratadi;

- Kredit ajratilish bosqichida Kredit ahborot tahliliy markazi (KATM) ma'lumotlariga tayangan holda qarorlar qabul qilish, ya'ni salbiy kredit tarixiga ega bo'lgan iste'molchilarga kredit ajratmaslik.

Bizningcha, iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichida tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda tijorat banklarining kredit portfelini sifatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilish maqsadga muvofiqdir, bu borada mazkur tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati paydo bo'lmoqda:

1. Muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining past va barqaror darajasini ta'minlash uchun, birinchidan, muammoli kreditlarning ko'p omilli moliyaviy tahlilining sifatini oshirish lozim; ikkinchidan, muammoli kreditlar summasining o'sish sur'atini brutto kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak; uchinchidan, tijorat banklarida kredit portfelining diversifikatsiya darajasini kreditlarning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilish bo'yicha xalqaro bank amaliyotida umumqabul qilingan chegaraviy darajada (25 %) bo'lishini ta'minlash zarur.

2. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari ko'rsatkichining amaldagi darajasini uning me'yoriy darajasida bo'lishini ta'minlash uchun kredit riskini baholash va boshqarish borasidagi ilg'or xorij tajribasini mamlakat banklari amaliyotiga to'laqonli joriy etish vazifasini hal qilish yo'li bilan tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash lozim.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.

4. Shavkat Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qattiq tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-T: O‘zbekiston, 2017.
5. Berezina M.P. Beznalichnye raschyoty v ekonomiki Rossii. Analiz praktiki. – M.: AO «Konsaltbankir», 1997. –s.5. [1],[2]
6. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubseva Ye.B. Sovremennyy ekonomicheskyy slovar. – M.: Infra-M, 2000. – s. 288.
7. Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskyy slovar. – M.: Kniznyy mir, 2003. – s. 895. [3]
8. Kosoy A.M. Platejnyy oborot: issledovanie i rekomendatsii. – M.: Finansy i statistika, 2005. – 264 s. [4]
9. Dostov V.L., Shust P.M., Valinurova A.A., Puxov A.V. (2012) Elektronnyye finansy. Mify i realnost/ -M.:KNORUS: SIPSiR, -232 s.
10. Platejnye i raschetnye sistemy. Mejdunarodnyy opyt. Innovatsii v roznichnykh platejakh. Vypusk 43. Vypusk podgotovlen Departamentom natsionalnoy platejnoy sistemy Banka Rossii. - C.8 ([www.cbr.ru](http://www.cbr.ru))
11. Raximova X.U. (2016) Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Moliya. - 299 b.
12. Raximova X.U. (2017) Elektronnaya kommersiya v Uzbekistane: sostoyanie, problemy i puti razvitiya. - T.: Moliya. - 111 b.
13. Taraqqiyot.uz sayti <http://taraqqiyot.uz/2018-yil-faol-tadbirkorlik-innovatsion-goyalar-va-tehnologiyalarni-k-ullab-k-uvvatlash-yili>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

